




**ANDIJON VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **Andijon viloyatida qurilish sohasini rivojlantirish**

**2023- YIL  
YANVAR-APREL**

# Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


Qurilish ishlari hajmi,  
mlrd soʻmda



2023- yil yanvar-aprel oylarida, Andijon viloyatida jami **1955,3** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **101,4 %** ni tashkil etdi.



Yillar kesimida oʻsish surʼati  
*Mart oyi boʻyicha*



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati – bu, oʻz-oʻzidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

# Andijon viloyati qurilish ishlari

Shahar va tumanlar kesimida, mlrd soʻmda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 77,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 87,1 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,4 foiz ulushni va 99,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd so'm



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

## 2023- yil yanvar-aprel

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **65,2 %** yoki **1274,6 mlrd soʻm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 24,9 mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 845,2 mlrd soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,3 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 404,4 mlrd soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 31,7 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
<b>Andijon viloyati</b>	1274,6	100,0
<b>Andijon sh.</b>	448,8	35,2
<b>Xonobod sh.</b>	37,2	2,9
<b>Oltinko‘l</b>	53,0	4,2
<b>Andijon</b>	152,3	12,0
<b>Baliqchi</b>	25,5	2,0
<b>Bo‘ston</b>	54,0	4,2
<b>Buloqbooshi</b>	21,6	1,7
<b>Jalaquduq</b>	45,7	3,6
<b>Izboskan</b>	49,2	3,9
<b>Ulug‘nor</b>	24,3	1,9
<b>Qo‘rg‘ontepa</b>	42,2	3,3
<b>Asaka</b>	42,2	3,3
<b>Marhamat</b>	67,7	5,3
<b>Shahrixon</b>	117,4	9,2
<b>Paxtaobod</b>	51,1	4,0
<b>Xo‘jaobod</b>	42,4	3,3

*\*hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

2023- yil yanvar-aprel oylariga shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahri (448,8 mlrd so‘m), Andijon tumanida 152,3 mlrd so‘m), Shahrixon tumanida (117,4 mlrd so‘m) va Marhamat tumanida (67,7 mlrd so‘m) qayd etildi.

# 2023- yil yanvar-aprel oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


*Korxonalar turlari bo'yicha*

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,7 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,5 % punktga ko'payib, 68,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning 30,5 % ni tashkil etdi.

**Jamiga nisbatan  
ulushi** .....



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

## O'sish sur'ati

## Bino va inshootlarni qurish

61,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

104,5%

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

104,2%

Norasmiy sektor




# Bino va inshootlar qurilishi 2023- yil yanvar-aprel oylari uchun

*Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari*

## Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



## Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



**MA'LUMOT UCHUN:** Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Ulug'nor tumani (2022- yilga nisbatan 105,7 %), Buloqboshi tumani (2022- yilga nisbatan 106,9%)ga to'g'ri keldi.




# 2023- yil yanvar-aprel oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,0 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga ko'paydi.

kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 3,4 % punktga kamayib 93,0 % ni tashkil etdi.



## O'sish sur'ati

## Fuqarolik obyektlarini qurish

142,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

113,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

-

Norasmiy sektor



# 2023- yil yanvar-aprel oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

## Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari


### Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd so'm va foizda)



### Hajm va o'sish sur'ati

(oy ko'rsatkichlari)




**MA'LUMOT UCHUN:** Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Ulug'nor tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 90,4 %), Buloqboshi tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 92,8 %) va Baliqchi tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 94,0 %).

# 2023- yil yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi va 1,0 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,7 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.



## O'sish sur'ati

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



25,5 %


Yirik qurilish tashkilotlari

100,0 %


Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

# 2023- yil yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

## Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



## Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)





0,0 %

0,0 %

**MA'LUMOT UCHUN:** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Qo'rg'ontepa tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 101,5 %), Marhamat tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 100,7 %), Baliqchi tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 102,4 %) va Buloqboshi tumani (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 101,9 %)ga to'g'ri keldi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **40,6** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1914,7** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1 %** va **97,9 %** ni tashkil etdi.



yanvar-aprel oylarida hajm, mlrd so'm

● Davlat mulki      ● Nodavlat mulk

**40,6**  
mlrd so'm  
Davlat mulki

**1914,7**  
mlrd so'm  
Nodavlat mulk

**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi), Xojaobod tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 foizi) qayd etildi.

# 2023- yil 1- may holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- bino va inshootlar qurilishi 55,9 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 66,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 12,7 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 31,4 %, o'sish sur'ati 76,8 % ni tashkil etdi.

